



XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko'chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2022 - yil 24 - oktabr

VI-46-167-8-117-K/22

Termiz tuman hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV sonli qarorlariga asosan Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining 2021-yil 26-maydagi 173/VI-28-sonli hamda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 26-yanvardagi “Tuman(shahar) budjetlari mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi KQ-302-IV-son qaroriga asosan xalq deputatlari Termiz tumani Kengashi

QAROR QILADI :

1. Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining 2021-yil 26-maydagi “Termiz tuman mahalliy budjeti mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 173/VI-28-son, 2022-yil 22-iyuldagi “Tuman budjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 44-120-8-117-K/22-sonli qarorlariga asosan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha

komissiyaning xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “openbudget.uz” portali orqali ovoz berish jarayonida g‘olib deb topilgan takliflarga mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Termiz tumani bo‘yicha 2022-yil iyul, avgust, sentabr oylarida o‘tkazilgan “Open budget” jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxat 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Termiz tumani “Janub Quyoshi” gazetasi tahririyati (D.Normurodov)ga tuman hokimligining Axborot xizmati (G‘.Bo‘riyev) va tuman hokimligi moliya bo‘limi (O‘.Ko‘chkinov)lar bilan birgalikda 3-bosqich, ya’ni “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan “g‘olib” takliflar, shuningdek undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Karimov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev)lar zimmasiga yuklansin.

**Termiz tumani Xalq deputatlari
Kengashi raisi**



Urinov.SH.B

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining
2022 yil 24 oktabrdagi
VI-46-167-8-117-K/22-son qaroriga
1-ilova

Termiz tumani bo'yicha 2022-yil 2-mavsumda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha

MANZILLI RO'YXAT

| № | G'olib taklif ma'lumotlari | | | | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Haqiqatda ajratilgan* | Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budget parametri) | Buyurtmachi tashkilot |
|---|----------------------------|---------|---|-------------------------|--|-----------------------|--|---|
| | Taklif ID raqami | Manzili | Qisqacha mazmuni | To'plagan ovozlari soni | | | | |
| "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag' | | | | | | 2 148 000 000 | x | x |
| 1 | 1120600528 | | "Yangihayot" MFY Boshdarak ko'chasidagi mavjud tabiiy gaz trubasini yangilash. Stolba o'tmagan. Ichimlik suvi o'tmagan. Ko'chamiz hattokki toshlanmagan. Tuman markazi hokimiyat orqasida turamiz biroq bir gaz, svet, ko'cha va ichimlik suvi tortilmagan. | 3792 | 1 200 000 000 | 1 200 000 000 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Termiz tuman Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi |
| 2 | 1120600774 | | Termiz tuman Axborot - kutubxona markazini kapital ta'mirlash uchun | 3623 | 948 000 000 | 948 000 000 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Termiz tuman Axborot kutubxona markazi |
| Taqsimlanmagan mablag' | | | | | | 0 | | |